

SOG'LOM DUNYOQARASHNI SHAKLLANTIRISHDA OILA -- TARAQQIYOT KAFOLATI

*Muallif: Namangan viloyati chortoq tumani
davlat va huquq nazaryasi fani o'qituvchisi
Muqaddas Rahimjanova Dilmurod qizi*

Dunyo yaralibdiki, har bir mavjudot juft-juft qilib yaratilgan. Juft bo'lib yashash tabiiy ehtiyojdir. Lekin oila bo'lib yashash faqat inson nasliga xosdir. Yer yuzida dastlabki oilani Odam Ato bilan Momo Havo tuzishgan. Oila tarixi shundan boshlangan. Tarixni kuzatadigan bo'lsak, oila masalasiga yengil qaragan hamda buni aksi bo'lgan xalqlar, davlatlar va madaniyatlar albatta inqirozga uchragan yoki taraqqiy etganning guvohi bo'lishimiz mumkin. Oila-o'ziga xos ijtimoiy guruh bo'lib, uning a'zolari bir-birlari bilan nikoh, qarindoshlik, umumiy turmush va o'zaro huquqiy, axloqiy hamda boshqa munosabatlar bilan bog'lanadilar. Oila mustahkam, tinch-totuv, halol va pok bo'lsa, jamiyat ham osoyishta, mustahkam, farovon bo'ladi. Aksincha, oilalarda parokandalik, buzg'unchilik bo'lsa, o'sha jamiyatning umumiy yashash tarzi buziladi, tinchlik yo'qoladi, oxir-oqibat u chuqur tanazzulga yuz tutadi. Shuning uchun ham qadimdan oila masalasiga e'tibor qaratilib, uning mustahkam, tinch va baxtli bo'lishlari uchun turli xil chora va usullar qo'llanilgan. Asl insoniy tabiat ham shunday bo'lishini talab etadi.

Muqaddas islom dini asosiga ko'ra, Alloh erkak va ayolning nikoh orqali oila qurib yashashlarini iroda etdi. O'zining barcha samoviy dinlarida nikohni joriy qildi. Hayotimizni qamrab oluvchi boshqa narsalar kabi nikoh va oila borasidagi saodatga olib boruvchi yo'l-yo'riqlarni taqdim etib borgan. Shu asnoda barcha zamon va makonlarda insonlar uchun saodat yo'lini ko'rsatuvchi oilaviy hayotimizning mustahkam hamda mukammal ta'limotlarini joriy etdi. Muqaddas dinimizda ko'rsatilgan tamoyillarga astoydil amal qilib kelganlarning oilasi tinch va baxtiyor yashab kelmoqdalar. Rasululloh sollallohu alayhi vasallam: "Nikoh mening

sunnatimdir. Kim sunnatimdan yuz o'girs, mendan emasdir", dedilar¹. Hadislardan birida Nabiy sollallohu alayhi vasallam o'zlarining nikohdan dunyoga kelganliklarini faxr bilan zikr qilganlar.² Qur' oni karimning Rum surasida Alloh taolo insonning o'zidan juft yaratib berishining hikmatini bayon qilib: "Sokinlik topishingiz uchun", deydi³. Demak insonlarning juft qilib yaratilishi bejiz emas ekan. "...va oralaringizda mehru-muhabbat va marhamatni solib qo'ydik..."⁴. Alloh taoloning o'zi er bilan xotinning orasiga sevgi muhabbat, rahm-shafqat solmasa, ular bir-birlarining xato va kamchiliklariga, oilaviy qiyinchiliklarga chidab yashay olarmidilar?

Yuqoridagi oyatlardan ko'rinib turibdiki, diniy manbalarda ham nikoh, oilaning muqaddas ekanligi, erkak va ayolning bir-birlarini to'ldirib turuvchi bir olam ekanliklari bayon etilgan. Ammo ming afsuslar bo'lsinki, hozirgi paytlarda butun dunyo, insoniyat oila masalalarini hal qilish borasida qator muammolar qarshisida turibdi. Aksariyat Yevropa mamlakatlarida yuz berayotgan voqealar ya'ni "shaxs erkinligi", "oilaning kerakmasligi", "nikoh inson erkini cheklab qo'yadi" "bir jinslilik" degan da'volarning ko'payib borishi, insonning sof tabiatiga zid bo'lgan bunday g'oyalar ko'lamida oilaning qadri qolmadi, mehr-muruvat, tinch-totuv yashash, nasl-nasab, farzandli bo'lish, bola tarbiyasi oilani asrab-avaylash u uchun qayg'urish insoniyat uchun yot tushunchalarga aylanib bormoqda. Rus mutaxasislarining ta'kidlashicha Rossiyadagi oilalarning 66% faqat bitta bola qoldiradi, Britaniyada har olti yangi oila hissasiga beshta buzilgan oila to'g'ri keladi. Bunday mislollarni yana ko'plab keltirish mumkin. Xo'sh, bizning mamlakatimizda oila borasidagi muammolar nimalardan iborat? Ularaning asl sabab mohiyati huquqni bilmaslik, dinni tushunmaslik, moddiy taraqqiyot, madaniyatsizlik bularning qay biri oilaning yo'q bo'lib, parchalanib ketishiga, turli muammolarning kelib chiqishiga turtki bo'lmoqda.

Mulohaza o'rnida: Olimlar J.Toshqulov, N.Yusupovalarning "Islom huquqshunosligi" nomli asarlarida kelishicha, fransuz olimi R.Sharl shunday deb

¹ Shayx Muhammad Sodiq Muhammad Yusuf. Baxtiyor oila. – T.: "Hilol nashr", 2018. - B. 23.

² Shayx Muhammad Sodiq Muhammad Yusuf. Baxtiyor oila. – T.: "Hilol nashr", 2018.- B. 19.

³ Shayx Abdulaziz Mansur. Qur'oni karim ma'nolarining tarjima va tafsiri. - T.: "Toshkent islom universitetii", 2015.

⁴ Shayx Abdulaziz Mansur. Qur'oni karim ma'nolarining tarjima va tafsiri. - T.: "Toshkent islom universiteti", 2015.

yozadi: “Musulmon oilasi, o’zining jipsligiga qaramay, biz, yevropacha jamiyat tushungan oilaga qaraganda ancha barqaror ijtimoiy hujayradir”⁵ Albatta musulmon oilalarida oila boshlig’iga katta vakolatlar berilgan. Bundan ko’zlangan asosiy maqsad oilaning og’irini yengil qiladigan, har bir ishni oqibatini o’ylaydigan, oilani sabr-toqat bilan boshqarib boradigan kishilardir. Fransuz olimi aytib o’tgan barqaror hujayraning beqarorlashuviga bugungi kunda nimalar omil bo’lib xizmat qilmoqda?

Afsuski, mamlakatimizda ham bugungi davrda ajrimlar sonining ko’payishi, oilaviy nizolarning avj olishi, oilada zo’ravonlikning ildiz otishi va buning oqibatida begunoh bolarning kelajagi, ularning psixologiyasi, shuningdek, ikki insoning hayoti zavolga yuz tutish holatlari oddiy holga aylanib qolmoqda. Ikki juftning bir-birini rad etishiga olib kelayotgan muammolar turlichadir. Er va xotinni tarozining ikki pallasiga qiyoslasak, uning muvozanatda turishi ikki tomonga ham taaluqli. Agarda bir taraf loqaydroq qarasa, muvozanat buziladi. Lekin bu ikki tomonni tutib turuvchi dastak vazifasini bajarayotgan ota-ona ham aynan oiladagi muammolarga sababchi bo’lishmoqda.

Jamiyatimizda turli qatlamlardagi oilalar mavjud. Ularni quydagicha tarkib va turlarga bo’lib chiqamiz:

- 1) To’liqliligiga ko’ra: to’liq, noto’liq, qayta tuzilgan;
- 2) Bolalar soniga ko’ra: farzandsiz, bir bolali va serfarzand;
- 3) Oilaning yoshiga ko’ra: yosh oila, o’rta yoshdagi oila, yetuk yoshdagi oila;
- 4) Mashg’ulot saviyasiga ko’ra: oliy va o’rta
- 5) Millatiga ko’ra: bir millatli va baynalminal;
- 6) Oilada er yoki xotin yetakchiligiga ko’ra: er yetakchi bo’lgan oila, xotin yetakchi bo’lgan oila;
- 7) Yuridik rasmiylashtirilganiga ko’ra: sinovdagi oila, nikohdagi oila nikohdan tashqari oila;
- 8) Moddiy ta’minlanganiga ko’ra: badavlat, o’rta hol, ijtimoiy yordamga muhtoj, (jon boshiga to’g’ri keladigan daromad va ixtiyordagi mol-mulk mezon qilib olinadi).

⁵ Шарль Р. Мусульманское право. – М.: “Издательство иностранной литературы”, 1959. – С. .54.

Yuqorida sanab o'tilgan ma'lumotlarni bir-biriga bog'laydigan bo'lsak, muammoning sabab va yechimlari topishga xarakat qilgan bo'lamiz. Oiladagi nizolarning yuzaga kelishining asosiy sabablari qatoriga quyidagi holatlarni keltirishimiz mumkin:

Oila va oilaviy munosabatlarda bilim va ko'nikmalarning yetishmasligi - bu holat asosan yosh va turmush qurishga nomzod bo'lgan oilalarni oilaviy hayot er-xotin munosabatlari va oilani yuritish haqidagi madaniyatning shakllanmagani;

2) Yosh oilalarga ota-onaning aralashuvi-bunday vaziyatlarda ko'pincha onalar faollroq bo'ladilar, o'g'illaridan xotinini taloq qilishini yangi oila qurishini so'rashlaridir. Hadislardan birida: "Hasanga: bir kishini onasi xotinini taloq qilishga amr etdi ?" deyildi. Shunda Hasan: "taloq onaga yaxshilik qilish ishlaridan emas",⁶ dedi. Bundan anglashilgan ma'no xotinini taloq qilish onanini hursand qiladish ish emasligi, onasining taloq so'rashi noshariy ekanligi, taloq qilmasa ham bola gunohkor bo'lmasligi aytilmoqda

3) Oila buzilishiga sabab bo'ladigan omillardan biri zinodir - bu hol yuqorida aytib o'tgan nikohdan tashqari bo'lgan oiladir aslida buni oila deb ham bo'lmaydi. Ayol va erakakning nikohsiz jinsiy aloqada bo'lishidir. Bizning xalqimiz zinoni katta gunoh deb biladi, oila qurishdan maqsad ham zinodan saqlanish, nasl-nasabni pok saqlashdan iborat emasmi

4) Oiladagi nizolardan yana biri farzandsizlik oila - qurishga nomzod bo'lgan yoshlar ko'r-ko'rona tibbiy ko'rikdan o'tishlari, ota-ona qiz yoki bolaning nuqsonini yashirishlari oqibatida yuzaga kelmoqda;

5) Aroqxo'rlik va giyohvandlik - bu barcha jamiyatning og'riqli nuqtasidan biri bo'lsa kerak. Oiladagi parokandalik, xalovatning yo'qolishidagi sababiyatlaridan biri erning ichkilikka berilib, janjal qilishi natijasida xotinini taloq qilishi, aka-ukalar, opa-singillar va xattoki ota-onalar o'rtasidagi munosabatlarning zaiflashuviga olib kelmoqda;

⁶ Shayx Muhammad Sodiq Muhammad Yusuf. Baxtiyor oila. - T.: "Hilol nashr" 2018. - B. 456.

6) Oilaning buzilishiga sabab bo'layotgan yana bir omil mol-mulkka bo'lgan xirs. Bugungi kunimizga nazar soladigan bo'lsak, chet davlatlarga mablag' topish maqsadida chiqib ketib, ekstremizmning, turli faxsh ishlarning qurboni bo'layotgan ayollar qancha;

7) Oila nizolarining yana bir sabablaridan biri bu-sabr-qanoatning yo'qligi. Oilaning moddiy yoki ma'naviy ta'minotiga sabrlilik, chidamlilik bir-birini qo'llab quvatlashlilik tushunchalarining yo'qolib ketayotganligi;

8) Jamiyatimizdagi to'y va marosim mezonlarini chetlab o'tish. Har kim o'z orzu-havasi ortidan quvib, farzandlarning baxtsiz bo'lib qolayotganidan bexabar, maqsadlari hamma havas qiladigan hashamdor to'ylaru qimmatbaho kiyim-kechaklardan tortib uy anjomlarigacha ustunlikka erishishdan iborat. Tafakkur qilmaydilarmi nikoh faqat ikki yoshning halol turmush qurganliklarini barchaga e'lon qilish va ko'pchilikni duosini olish;

9) Diniy va dunyoviy masalalarda oila qanday bo'lishi uni qanday muhofaza etilishi 3haqidagi ma'lumotlarning deyarli yo'qligi;

10) Oilada farzand kamoloti uchun ota-onaning roli qanday bo'lishi lozimligini tushunib yetmasliklari, vaholanki farzandlar nafaqat ota-ona balki, jamiyat, xalqning porloq kelajagini belgilovchi umid nihollaridir.

Yuqoridagi keltirib o'tilgan oilaviy nizolarning yechimini topmoqlik siz-u bizning ulkan vazifamizdir. Oilaviy nizolarning sabablarini oldini olish quydagilardan iborat.

Birinchiidan, yosh oilalar va o'rta oilalarda oilaviy munosabatlarni qanday olib borish uni mustahkamlash uchun aynan nimalarga e'tibor berish to'g'risida mutaxassis psixologlar, oila markazlari haftada bir marta tushuntirish ishlarini olib borishlari;

Ikkinchiidan, mahalla tuman shahar miqiyosida "na'munali oila timsoli" mavzusida qisqa metrajli video filmlar namoyishini uzluksiz o'tkazib turish.

Uchinchiidan, oila jamiyati taraqqiyotining asosiy kafolatlaridan biri ekanligini anglagan holda, oilaviy ajrimlar oqibatida farzandlar hayoti, jamiyat hayoti xavf ostida qolayotgani to'g'risida na'munaviy to'plam kitoblar nashr etish;

To'rtinchidan, ta'lim dargohlarida, tashkilot va muassasalarda oilaviy nizolar va ularni oldini olish maqsadida seminar treninglar o'tkazish;

Beshinchidan, ota-onalarni qum zarrasi ustiga qurilgan qasr ichida yashashdek orzulari aslida farzand istiqboli uchun ayanchli holat ekanligini tushuntirish maqsadida mahalladan boshlab diniy ulamolar va oila markazlarining mas'ul shaxslari tomonidan oyda ikki martalik suhbat o'tkazish.

Shu ma'noda oiladagi jarayaonni ijobiy va salbiy mohiyatini teran anglagan Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev o'z nutqlarida alohida to'xtalib o'tganlar: "Oila vatan ichidagi vatandir. Oila men uchun muqaddasligi shuki, avvalambor oila boshlig'i qayerda ishlashidan qat'iy nazar agar oilada tarbiya, oilada muhit, oilada halollik, munosabat, tarbiyaga alohida e'tibor bermasa, hech qachon natija bo'lmaydi. Odam baxtliman deyishga qanchalik haqqi bor? Agar oilang bilan sen baxtli bo'lsang, baxtliman deyishga haqqing bor. Faqat oilam emas, xalqim baxtli bo'lsa men ham o'zimni baxtli deb bilaman"⁷.

Xulosa qilib aytganda, oilaviy nizolar va ularning sabablari faqat erkak va ayolning baxtsizligi emas, butun bir jamiyat taraqqiyoti, taqdiri uchun salbiy oqibatlarga olib kelishi mumkin. Zero, oila bolalar sotsiolizatsiyasi uchun asosiy institut vazifasini o'taydi. Oilada ota farzand uchun o'rnak, ona esa o'qituvchi bo'ladi, Buning uchun esa ota-ona o'z kamchiliklarini tuzatmog'i zarurdir. Ana shunda ular haqiqiy o'qituvchi bo'lishadi. Mustahkam oila – taraqqiyot kafolatidir.

Foydalanilgan adabiyotalar:

1. Abdulaziz Mansur. Qur'oni karim ma'nolarining tarjima va tafsiri. –Toshkent. "Toshkent islom universiteti", 2015.
2. Muhammad Sodiq Muhammad Yusuf. Baxtiyor oila. - Toshkent. "Hilol nashr", 2018.
3. J.Toshqulov., N.Yusupova. Islom huquqshunosligi. - Toshkent. "Toshkent islom universiteti", 2014.

4. Шарль Р. Мусульманское право. – М.: Издательство иностранной литературы, 1959.
5. www.ziyouz.com
6. <http://xabar.uz>